

**UMUMTA'LIM MAKTABLARINING YUQORI SINFLARIDA
INGLIZ TILI NUTQINING GRAMMATIK TOMONINI
O'ZLASHTIRISHDAGI INTERFERENSION QIYINCHILIKLAR**

Amirqulova Dilnoza Bahriddin qizi

NavDU tayanch doktoranti

wdilnoz1994@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta’lim maktablarining yuqori sinf o’quvchilarida ingliz tili nutqining grammatik tomonini o’zlashtirish jarayonida uchraydigan interferension qiyinchiliklar tahlil qilingan. Bunda ona tili hamda chet tillardagi grammatik qurilishi o’rtasidagi farqlar, interferensiya turlari hamda ularni bartaraf etishning samarali metodik yo’llari ko’rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: interferensiya, grammatik qiyinchiliklar, qotib qolish, ingliz tili, o’zlashtirish, o’quvchi nutqi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o’qitish ta’lim jarayonining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ingliz tilining grammatik qoidalari va strukturalari o’zbek tilidan tubdan farq qilgani sababli yuqori sinf o’quvchilarida nutq jarayonida interferension xatoliklar yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Ingliz tilini o’rganish jarayonida o’quvchilar ko’pincha grammatik jihatdan interferension xatolarga yo’l qo’yadilar. Interferensiya – bu ona tili ta’sirida chet tilini o’zlashtirishda yuzaga keladigan qiyinchilik va xatolardir [1].

Interferensiya tushunchasi va mohiyati.

Interferensiya – bu ona tilining chet tilini o’zlashtirish jarayoniga ko’rsatadigan salbiy ta’siri hisoblanadi. Bu interferensiya xalqaro darajadagi muammo hisoblanib, hattoki, interlanguage (2 xildagi qoidalarining qorishib ketishi) ga ham olib keladi, bu hodisani vaqtida tushunib yetmaslik natijasida bu kabi qoidalar o’quvchilarning kundalik muloqot jarayonida qotib qoladi (fossilazation) [2]. Bu jarayonda o’quvchilarda grammatik jihatdan ko’proq aniqlanadi.

Grammatik interferensiya namoyon bo’ladigan holatlar

- So’z tartibi xatolari (Subject-Verb-Object qoidasiga rioya qilmaslik)

Masalan: I to school go tarzida gaplar tuzish, aslida esa I go to school.

- Zamon shakllarini noto’g’ri qo’llash (Present/Past Simple)

Masalan: We goed to the park yesterday deyishi, bunda biz bitta qoidani bir necha qoidalar o’rnida ishlatishi. Struktura aslida We went to the school yesterday holatida bo’lish kerak.

- Predloglar noto’g’ri qo’llanilishi:

In. on, at predloglarini barchasini-da deb tarjima qilib, joylar, vaqtlarga nisbatan ishlatilganda farqlanadi.

Masalan: The lessons starts in 8 o’clock, mazkur gapda in predlogi o’rniga soatlar oldidan at predlogi ishlatilishi kerak.

- Artikl va yordamchi fe’llarning o’rinli ishlatilmasligi

Ingliz tili o’rganuvchilarga artiklni gapda qo’llash biroz qiyinchili tug’diradi, sababiki, o’quvchining ona tilisida artikl degan tushunchaning mavjud emasligida hisoblanadi, yoki dunyodagi tanho nomlar oldiga the artiklini ishlatish o’rniga, birlikdaku deb o’ylab noaniq artiklni ishlatilishi.

Masalan: The sun is shining deyish o’rniga a sun is shining tarzida berilishi.

- Ko’plik va birlik son formalarida xatolar

Bunday holatda o’quvchi o’zi doim ko’plikda ishlatiladigan otlarga ko’plik hosil qiluvchi “-s” qo’shimchasini qo’shib foydalanishi.

Masalan: The childrens are playing in the yard now.

- So’z turkumlari bilan bog’liq grammatik xatolar [3].

Qiyinchiliklarning sabablari

✓ Ona tilining grammatik qoidalar o’z-o’zidan chet tiliga ko’chishi; (interlanguage hodisasi)

✓ Til muhitining yetishmasligi;

✓ O’zbek va ingliz tillarining grammatik tizimi orasidagi tub farqlar

✓ O’qitish jarayonida metodik kamchiliklar

✓ Amaliy nutq mashqlarining yetarli emasligi:

Bartaraf etish usullari:

- Grammatik qoidalarni qiyosiy tahlil qilish;

- Maxsus grammatik mashqlar tizimini joriy etish;

- Muloqotli vaziyatlarda nutq mashqlarini ko’paytirish;

- Ona tili va chet tili strukturaviy farqlarini o’rgatish;

- Interferensiyani kamaytirishga qaratilgan vizual va didaktik materiallar asosida ishlash.

Natijalar va takliflar

1. Grammatika va nutqni uyg‘un holda o‘rgatishga alohida e’tibor qaratish.
2. Interferensiya holatlarini kamaytirishga qaratilgan maxsus mashqlar tuzish.
3. Nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantirish: o‘qish, yozish, tinglash va gapirish.
4. Taqqoslash metodidan samarali foydalanish (o‘zbek tili va ingliz tili qoidalarini solishtirish).
5. Didaktik o‘yinlar, kommunikativ mashqlar orqali o‘quvchilar faolligini oshirish [5].

Xulosa. Umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida ingliz tili nutqining grammatik tomonini o‘zlashtirish jarayonida interferensiya qiyinchiliklar tabiiy hodisa sifatida yuzaga chiqmoqda. Buning asosiy sabablari — o‘zbek va ingliz tillari grammatik qurilishidagi tub farqlar, ona tilining kuchli ta’siri, grammatik strukturalarni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasining sustligi, nutq jarayonida grammatika me’yorlariga rioya qilmaslik holatlaridir. Bu muammolarni bartaraf etish uchun o‘qitish jarayonida grammatikani qiyosiy o‘rganish, maxsus mashqlarni ko‘paytirish, nutqiy vazifalarni amaliyot bilan mustahkamlash va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, til o‘rgatishda zamonaviy metodik usullardan samarali foydalanish, til muhitini yaratish va grammatika bilan nutq madaniyatini uyg‘un holda shakllantirish bugungi kunda dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov B. Chet tillarini o‘qitish metodikasi. Samarqand, 2019.
2. The teaching knowledge test. Cambridge University Press, 2011. P.63.
3. Аракин А.В. Практическая грамматика английского языка. – М.: 2002.
4. Karimov N. Lingvodidaktika asoslari. Toshkent, 2018.
5. G‘ofurov G‘. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent, 2020.